



JISMONIY VA RUXIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR LUG'AT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH

Usmonov Umid Allayorovich

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti
Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya)
mutaxassisligi 2- kurs magistri
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8017223>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil
Ma'qullandi: 05-June 2023 yil
Nashr qilindi: 08-June 2023 yil

KEY WORDS

Lug'at, ruhiy rivojlanishi
sustlashgan, nutq nuqsoni,
komponent, korreksion-
logopedik ish,

ABSTRACT

Ushbu maqolada jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar lug'at boyligini rivojlantirish yo'llari, hamda ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni lug'at boyligini rivojlantirishda guruhli mashg'ulotlar dasturi ketma-ketligi ko'rsatib o'tilgan.

Lug'at—til tizimining muhim qismi bo'lib, umumta'lim va amaliy ahamiyatga ega. Lug'atning boyligi bola nutqini yuqori rivojlanayotganligidan dalolat beradi, shuning uchun lug'at boyligini rivojlantirish muammosi bugungi kun logopediyasida muhim o'rinni egallaydi.

So'z o'zida asosiy til birligini ifodalaydi, u murakkab qurilishga ega bo'lib, quyidagi asosiy qismlardan iborat, mazmunni anglatib, predmet tegishlilikini; lug'aviy ma'noga, so'zni tushuncha bilan moslashishiga, kontekstli mazmunga ega. So'z bir-biri yuilan ma'no jihatdan bog'lanib, aniq leksik tizimni tashkil etadi. Murakkab ma'noviy bog'lanishlar semantik maydonni, leksik tizimlilikni shakllantiriladi. Lug'at rivojlanishi jarayonida so'z paradigmatic va sintagmatik bog'liqlik tizimiga qo'shiladi. Bu so'z ma'nosining tizimli aspekti hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda bilish faoliyatining buzilishi nutq sistemasining barcha komponentlarini buzilishiga sabab bo'ladi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni lug'at boyligini rivojlantirish korreksion ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Logopediyada nutq nuqsoniga ega maktabgacha yoshdagi bolalarni lug'at boyligini rivojlantirishga tegishli yetarlicha nazariy, amaliy va metodik materiallar mavjud. Bu materiallardan ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar lug'atini boyitishda ham keng foydalanish mumkin. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga mo'ljallangan maxsus maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya dasturida bolalarni nutqini leksik-grammatik tomonini rivojlantirish bo'yicha o'tkaziladigan frontal mashg'ulotlar tartibi va mazmuni to'liq ochib berilgan. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar nutqini lug'at tomonini rivojlantirishda T.B.Filicheva va G.I.Chirkinalar ishlab chiqqan dasturdan keng foydalanish mumkin.

Ta'limning birinchi bosqichida logoped tilning leksik-grammatik tomonini

rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni haftasiga 2 marta, ikkinchi bosqichida 3 marta, uchinchi bosqichida 4 marta olib boradi.

Korreksion ta'lim mazmuni quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

O'qitishning birinchi bosqichi:

- Og'zaki nutqni tushunishini rivojlantirish;
- Dialog shaklidagi muloqotni egallashga tayyorlash;
- So'z yasashning o'ziga xos usullarini amalda o'zlashtirish;
- Olmoshni otga moslashtirishni o'zlashtirish;
- Fe'lni zamonga moslashtirishni o'rgatish;
- Savollar asosida sodda gap tuzish

O'qitishning ikkinchi bosqichi:

- Sifatlar yasashni amalda o'rganish;
- Otni son va kelishikda sifatga moslashtirish;
- Uchinchi shaxs birlikdagi fe'lni son va kelishikka moslashtirish;
- "ustida", "tagida", "yonida", "orqasida" kabi tushunchalarni qo'llash;
- Dialog tuzish ko'nikmalarini takomillashtirish

O'qitishning uchinchi bosqichi:

- Qo'shimchalar yordamida sifat yasash;
- Qo'shimchalar yordamida sifatlarni yasash;
- Erkalash qo'shimchalari yordamida ot yasash;
- Antonim va sinonimlarni shakllantirish;
- Ot va fe'lni kelishik va shaxs-sonla moslashtirish;
- Turli shakldagi gap tuzish

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni lug'at boyligini rivojlantirishda T.B.Filicheva va G.V.Chirkinalar tomonidan guruhli mashg'ulotlar dasturi ketma-ketligi taklif etilgan.

O'qitishning birinchi davrida: "Kuz, mevalar va sabzavotlar", "Bog", "Kiyim-kechaklar", "Oyoq kiyimlar", "Idish-tovoqlar", "Oziq-ovqatlar", "Qushlar", "Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar" mavzulari o'tiladi.

O'qitishning ikkinchi davri: "Qish", "Yangi yil bayrami", "Oila", "Mebel", "Bizning shahar", "Bizning ko'cha", "Kasblar", "Transportlar", "Baxor", "Bog".

O'qitishning uchinchi davri: "8-mart Onajonlar bayrami", "Navro'z", "Maktab", "Bizning bog'cha", "Bizning uy" kabi mavzular o'qitiladi.

Olib borgan tadqiqotimiz natijalaridan va maxsus adabiyotlar tahlilidan shu narsani ko'rdikki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar lug'ati sog'lom tengdoshlarinikidan ancha kam, shuningdek bolalar lug'atida bor so'zlarning ko'pi ma'no jihatdan bog'lanmagan. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning lug'ati ko'p holllarda faqatgina ular kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan so'zlardangina iborat.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning lug'at boyligi sekin rivojlanadi, bunda asosan ularning lug'ati aniq ma'noga ega bo'lgan so'zlar hisobiga boyiydi.

Mavhum munosabatlarni bildiradigan so'z birliklari, ko'rgazmali vositalar bilan ifodalab bo'lmaydigan so'zlarni lug'atiga kiritish juda sekin amalga oshiriladi.

Nutqning turli qismlari lug'atda turlicha ifodalangan. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar lug'atida otlar ko'proq bo'lib, fe'l, ravishlar, olmoshlar, sifatlar juda kam ba'zi

bolalarda umuman yo'q. Lug'at boyligining kambag'alligi nutqni stereotipligiga olib keladi, bolalar bir xildagi so'zlar guruhini qayta-qayta takrorlanishi kuzatiladi, ko'pincha bu narsa predmetlarning harakati va belgisini bildiradigan so'zlarda yaqqol aks etadi, harakatlarni ma'nosini bildiradigan so'z birliklarini yetishmovchiligi ichki nutq shakllanishi va o'z fikrini bayon etish malakasini shakllanishi kechiktiradi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni so'z ma'nosini to'la egallamaganligi ularni lug'at boyligini o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda lug'at boyligini kambag'alligi so'zlarni ma'nosiga ko'ra mos kelmaydigan so'zlarni almashtirishiga olib keladi. So'zlarni keng qo'llanishi, bolalar unda umumiy va farqlanmagan ma'nolarni birlashtirishi deb tushuntiriladi. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar lug'atidagi nuqsonlarda passiv va faol lug'at orasidagi muhim uzilishlarni aniqlashni talab etadi.

Olib borilgan logopedik ish nutqiy muloqotni shakllantirish tamoyili asosida qurildi. Bu aniq korreksion ta'sirni ko'zda tutadi. Birinchidan, tanlangan leksik material asta-sekin nutqiy amaliyotga kiritiladi, ya'ni uni turli sharoitlarda qo'llashga shuningdek o'yin sharoitida ham qo'llashga kiritiladi. Ikkinchidan, korreksion ish jarayonida biz ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning tilni muloqot vositasi sifatida egallashning umumiy qonuniyatlarini hisobga oldik. Uchinchidan, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni nutqiy muloqotini tashkil etish, shu tariqa ularni nutqiy faoliyatini stimullashtirish, leksik birliklarni qo'llash ehtiyoji tug'iladi. To'rtinchidan, logopedik ishda so'zning smantik strukturasi haqidagi zamonaviy tasavvurlar hisobga olindi. Korreksion ta'sir so'z ma'nosi strukturasi asosiy komponentlarini shakllantirishga yshnaltirilgan. Beshinchidan, lug'atni rivojlantirish nutqni to'laligicha rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir, ayniqsa nutqning grammatik qurilishi bilan.

Korreksion-logopedik ishning muhim yo'nalishi leksik tizimni, turli so'zlar bog'liqligini o'rnatish, semantik maydon "ko'rish"ni shakllantirish hisoblanadi.

Oltinchidan, lug'atni rivojlantirish murakkab nutqiy faoliyat tizimini hisobga olib qurildi: motivatsion, operatsion nazorat bosqichi

Umumdidaktik tamoyillar lug'at boyligini shakllantirish jarayonini pedagogik ta'sirni belgilash imkonini beradi:

1. So'z ustida ishlash maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof olam bilan tanishtirish va bilish faoliyatlarini rivojlantirish bilan olib boriladi
2. Lug'atni rivojlantirish nutqni to'liq rivojlantirish bilan uzviy bog'liq ravishda olib boriladi.
3. Lug'at ishi bilan bog'liq barcha vazifalar bitta va aniq ketma-ketlikda hal etiladi.
4. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni lug'at boyligini rivojlantirish psixik jarayon va aqliy qobiliyatni rivojlantirish bilan birgalikda olib boriladi.

Xulosa: Jamiyatning imkoniyati cheklangan shaxslarga g'amxo'rlik ko'rsatishi zahirida, ularni ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy rivojlantirish va sog'lomlashtirishdan iborat. Ko'pgina mamlakatlarning mutaxasislari imkoniyati cheklangan shaxslarni ayniqsa bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiyasini, sog'ligini tiklash, ijtimoiy hayotga faol qatnashi, ish qobiliyatini tiklash va sog'lom jamiyatga tayyorlashning samarali dasturini ishlab chiqish yo'llarini izlamoqda. Bu vazifa ancha murakkab albatta bu muammoni hal qilish uchun barcha soha mutaxasislari: shifokorlar, psixologlar, pedagoglar, defektologlar, sport va madaniyat sohasida faoliyat ko'rsatuvchi mutaxasislar, ijtimoiy xodimlar va boshqalarning, hamkorlikda ilmiy

tadqiqotlarni, birlashtirib kompleks ravishda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.K.Mamedov, G.B. Shoumarov, V.L.Godobod "Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida" Toshkent 1993 y "Logoped-tarbiyachi, ota-ona
2. L.R.Mo'minova "Bolalarni logopedik tekshirish va o'qitish" Toshkent 1992 y "Logoped-tarbiyachi, ota-ona"



INNOVATIVE
ACADEMY